

Ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish va sport sohasida o‘z qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berish masalalari bo‘yicha mo‘ljallangan bo‘lib ushbu tashabbuslarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston davlat konservatoriyasida bir qator tanlov hamda musobaqalar bo‘lib o‘tdi. Joriy yilning 15-sentabr kuni O‘zbekiston davlat konservatoriyasida “Talabalar ligasi“ doirasida sport turniri tashkil etildi. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida O‘zbekiston davlat konservatoriyasida talabalar o‘rtasida stol tenis, shaxmat-shashka sport o‘yinlari bo‘yicha musobaqa bo‘lib o‘tdi. Musobaqani boshlash oldidan O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Kompazitor” sport kulubi raisi o‘rinbosari Z.Palibayeva tomonidan stol tenis hamda shaxmat-shashka tashkil etish tartibi, qonun-qoidalari va shartlari haqida tushuntirildi. Musobaqa doirasida 80 dan ortiq taaba yoshlar ishtirok etdilar. Musobaqa songida g‘oliblar estalik sovg‘a hamda diplom bilan taqdirlandilar.



Yoshlarni jismoniy chiniqtirish va sport sohasida o'z qobiliyatini namoyon qilishlari uchun "Talabalar sport ligasi" sport turlari bo'yicha O'zbekiston davlat konaervatoriyasida "Besh tashabbus olimpiadasi" ga start berildi. Joriy yil 1-sonli TTJ da "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida shaxmat va shashka sport turi bo'yich musobaqa bo'lib o'tdi.

Murosasiz ruhda bo'lib o'tgan musobaqada

1-o'rin Jalilov Anvar

2-o'rin Aliyev Urinboy

3-o'rin Mo'minov Baxtiyor o'rinlarini egalashdi.

Musobaqa doirasida TTJda istiqomat qiluvchi 100 dan ortiq talaba yoshlar ishtirok etdilar. Musobaqa songida g'oliblar estalik sovg'a hamda diplom bilan taqdirlandilar.



Davlatimiz rahbari raisligida joriy yilning 11 aprel kuni yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish hamda ular bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish ta'lim sifatining oshishiga ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan edi. Shu maqsadda mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarida futbol, voleybol, basketbol, shaxmat, stol tennisi kabi sport turlari bo'yicha klublar faoliyatini yo'lga qo'yish belgilangan. Shu munosabat bilan O'zbekiston davlat konservatoriyasi sport zalida talaba yoshlar uchun bir qator sport to'garaklari o'z faoliyatlarini davom ettirmoqda. Xususan gimnastika, stritbol, stol tennis, mini futbol sport turlari bo'yicha talaba yoshlar o'rtasida bir qator sport musobalari davom etmoqda.



Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan 5 ta muhim tashabbusning ikkinchisi bo'lgan yoshlarni jismonan chiniqtirish, ularni sport sohasida qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan tashabbus ijrosini taminlash, yoshlarni tatil kunlarini mazmunli tashkil etish maqsadida mamlakatimizning barcha hududlarida sport musobaqalari tashkil etilmoqda. Shu munosabati bilan O'zbekiston davlat konservatoriyasida "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida bir qator sport turlari bo'yicha musobaqalar bo'lib o'tdi.

Murosasiz ruhda bo'lib o'tgan musobaqada:

Shaxmat sport turi bo'yicha:

1-o'rin Muhammadov G'ayratjon

2-o'rin Adhamov Samandar

3-o'rin Jalilov Anvar o'rinlarni egallashdi. G'oliblarni tabriklab qolamiz.

Shashka sport turi bo'yicha:

1-o'rin Rahimjonova Diyora

2-o'rin Nizomova Mohigul

3-o'rin Rustamova Zulayxo o'rinlarni egallashdi. G'oliblarni tabriklab qolamiz.

Stol tennis sport turi bo'yicha:

1-o'rin Sayfiddinov Shukurillo

2-o'rin Xo'jaxonov Shaxboz

3-o'rin Parmonov Diyorbek o'rinlarni egallashdi.



Qayd etilishicha, har bir tashkilotda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni targ'ib qilish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish, gender tenglikka erishish masalalariga jamoatchilik e'tiborini keng jalb etish maqsadida Davlat dasturiga muvofiq, "Ilmli ayol — jamiyat ko'zgusi" shiori ostida "XXI asr ayoli" xotin-qizlar festivalini o'tkazish yuzasidan 2023 yilning 31 iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 37-majlis bayoni ijroga qaratildi. Joriy yil Oila va xotin-qizlar qo'mitasi va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan joriy yil 24-31 oktyabr kunlari Toshkent shahrida "XXI asr ayoli" respublika festivaliga start berildi shu munosabat bilan O'zbekiston davlat konservatoriyasi talaba qizlar hamda ayol professor-o'qituvchilar o'rtasida "XXI asr ayoli" xotin-qizlar festivali bo'lib o'tmoqda. Shu munosabati bilan talaba qizlar hamda ayol professor-o'qituvchilar va hodimlar o'rtasida shaxmat, shashka, stol tennisi sport turlari bo'yicha musobaqalar bo'lib o'tdi. Ushbu musobaqani O'zbekiston davlat konservatoriyasi Xotin-qizlar maslaxat kengashi raisi S.Xamdamova hamda dekan o'rinbosarlari tomonidan tashkil etildi.



O'zbekiston davlat konservatoriyasida "Talabalar ligasi" doirasida sport turnirlari davom etmoqda. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida O'zbekiston davlat konservatoriyasida talabalar o'rtasida stol tenis, shaxmat-shashka mini futbol sport o'yinlari bo'yicha musobaqalar davom etmoqda. Shu sport turidan biri mini futbol turi bo'yicha "Talabalar ligasi" musobaqasi saralash bosqichi birinchi turi bo'lib o'tdi. Unda "Puflama va zarbli cholg'ular" bo'liming 2-bosqich hamda 4-bosqich talabalari o'rtasida musobaqa o'tkazildi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligida 11.04.2023 yilda "Yoshlar siyosati soxasidagi ishlar natijadorligini oshirish xamda ular bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari"ga bagishlangan videosektor yig'ilishida Davlat rahbari tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Ushbu topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida Toshkent shahri mahallalarida istiqomat qiluvchi ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni qo'llab quvvatlash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, kasb-hunarga o'rgatib bandligini ta'minlash maqsadida joriy yilning 8-sentabr kuni O'zbekiston davlat konservatoriyasi rektori boshchiligida Shayxontohur tumani Ko'kcha mahallasida istiqomat qiluvchi yoshlar bilan uchrashuv tashkil etildi va muammolariga yechim topildi hamda yoshlarga turli xildagi yordamlar ko'rsatildi.



O‘zbekiston davlat konservatoriyadi TTJda istiqomat qiluvchi talabalarga TTJ va O‘zbekiston davlat konservatoriyasi ichki tartib qoidalari bilan tanishtirish bo‘yicha suxbat bo‘lib o‘tdi. Davra suxbatida Yoshlar masalalari va ma‘naviy va ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor Y.M.Xusnitdinova va O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor F.R.Abdullayev so‘zga chiqib O‘zbekiston davlat konservatoriyasi ichki tartib qoidalari hamda TTJ ichki tartib qoidalar bilan tanishtirib o‘tdi, Suxbat davomida O‘zDK profilaktika katta inspektori kapitan D.I.Davronov so‘zga chiqib talabalar o‘rtasida huquqbuzarlik, jinoyatchilikni oldini olish haqida o‘z fikrlarini bildirib o‘tdi. Suxbat davomida talabalar o‘zini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.



O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan yoshlarga oid davlat siyosatini

takomillashtirish **maqsadida to'rtinchi tashabbus** aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish masalalari bo'yicha hamda **beshinchi tashabbus** xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash ishlarini tizimli tashkil etish masalalari bo'yicha. O'zbekiston davlat konservatoriyasida tahsil oluvchi talaba-qizlar ishtirokida davra suhbat tashkil etildi. Unda O'zbekiston davlat konservatoriyasi Yoshlar masalalari ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor Y.Xusnitdinova va Xotin-qizlar masalalari bo'yicha Kengash raisi S.Hamdanova hamda talaba-qizlar ishtirok etdi. Suhbat davomida O'zbekiston davlat konservatoriyasi ichki-tartib qoidalariga rioya qilish, talaba-qizlarning ijtimoiy, psixologik muammolarini o'rganish va hal qilishga ko'maklashish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish, Ilmiy ayol millat ko'zgusi, Ayol baxti, Zamonaviy ayol libosi mavzularida so'z yuritildi.



O'zbekiston davlat konservatoriyasida Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha birinchi prorektori Y.Xusnitdinova boshchiligida talaba-yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash, davlatimiz tomonidan yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida batafsil ma'lumot berish maqsadida Shayxontohur tuman hokimi o'rinbosari N.Xoliqov, Yoshlar bilan ishlash ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i A.Raxmanov, Profilaktika katta inspektori D.Davronov hamda talabalar o'rtasida davra suxbati bo'lib o'tdi. Shuningdek, O'zbekiston davlat konservatoriyasi Yoshlar Ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi S.Isroilova tomonidan talaba yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar haqida ham keng tushunchalar berdi.

